

SARLAVHALARDA TAG MA'NONING IFODALANISHI

*O'tanova Shaxnoza Maxmudovna**Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

Tag ma'no o'zbek tilida ham boshqa tillardagi kabi nutqiy tushunish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Uning to'g'ri tushunilishi kontekstga bog'liq. Bunda nutq vaziyati, so'zlovchi va tinglovchilarining umumiy bilimlari muhim ahamiyatga ega. Nutqda tag ma'no gap tarkibida bevosita ifodalangan bo'lsa-da, uning asl ma'nosini anglash uchun mazmun kontekst orqali ochiladi. Masalan, yozuvchi obyektiv bir axborotni to'g'ridan-to'g'ri ifodalashni istamasa, u tag ma'no orqali buni amalgalashadi, va o'quvchi bu axborotni kontekstga qarab tushunadi.

Tag ma'no shakllari lingvistik pragmatika yo'nališining asosiy muammolaridan biri sanaladi. Tag ma'no o'zining turlicha ko'rinishlari bilan xarakterlanib, u piching, kinoya, kesatiq tushunchalarini ham qamrab oladi.

Kinoya lingvistik vosita sifatida so'z yoki iboraning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan farqli ravishda, yashirin, qarama-qarshi ma'noni ifodalaydi. Sarlavhada kinoya qo'llanganda, o'quvchi sarlavhaning chuqurroq yoki ikkilamchi ma'nosini izlashga undaladi. Bunday uslubiy figura matnga kinoyaviy ohang beradi va o'quvchida matn mazmuniga nisbatan tanqidiy yondashuv shakllantiradi. Masalan agar sarlavhada "**Xotirjam hayotda umuman muammo yo'q!**" kabi ibora ishlatilgan bo'lsa, bu kinoyaviy ohangda bo'lib, aslida o'quvchiga muammolar mavjudligi va muammo yuzasidan kinoyali e'tirozni ifodalashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Kinoyaviy sarlavha o'quvchining qiziqishini oshiradi, chunki sarlavha ortida yashirin ma'no borligini anglash qiziq. Kinoya yordamida sarlavha o'quvchiga matn mavzusiga nisbatan muayyan nuqtai nazar bilan yaqinlashish imkonini beradi. Bu esa matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Sarlavha va matnning umumiy mazmuni o'rtasida kontrast o'quvchini sarlavhani to'g'ri talqin qilishga undaydi.

Kesatiq kinoyaga yaqin bo'lgan lingvistik vosita bo'lib, u ham yashirin ma'noni ifodalaydi, ammo kinoyadan farqli ravishda, kesatiq odatda o'tkir va tanqidiy xarakterga ega bo'ladi. Kesatiq sarlavhalarda bevosita mazmun bilan qarama-qarshi bo'lgan va ko'pincha masxara ohangida ifodalananadi. **Masalan** sarlavha "**Eng yaxshi xizmat: mijozlarga umuman e'tibor bermaslik!**" kabi shaklda bo'lsa, u kesatiq ohangida bo'lib, mazkur xizmatning sifati yoki mijozlarga nisbatan hurmatsizlikni o'tkir tanqid qilishni ifodalaydi.

Kesatiqli sarlavha orqali yozuvchi muayyan holat yoki shaxsga nisbatan o'tkir tanqid va norozilikni ifodalaydi. Kesatiq o'quvchida hissiy javob uyg'otadi, chunki u odatda qizg'in muhokama qilinadigan yoki bahsli masalalar bilan bog'liq bo'ladi.

Bunday sarlavhalar o'quvchini o'ziga jalg qilib, matnning mazmunini chuqurroq o'qishga undaydi.

Kinoya va kesatiq bir vaqtning o'zida bir nechta ma'nolarni qamrab oladi, bu esa matn mazmunini murakkablashtiradi. O'quvchi bu ma'nolarni kontekst orqali to'g'ri tushunishi kerak. Bunday vositalar, ko'pincha, muayyan madaniy va ijtimoiy bilimga ega bo'lgan auditoriya uchun tushunarli bo'ladi. Kinoyaviy yoki kesatiqli sarlavhani to'g'ri tushunish uchun o'quvchi o'z bilimini va matnni qabul qilish tajribasini ishlatadi. Ikkala uslubiy figura ham yozuvchining yoki so'zlovchining mavzuga qarshi yoki tanqidiy munosabatini ifodalaydi. Bu esa o'quvchini ham shu munosabatni qabul qilishga yoki o'z munosabatini aniqlashtirishga undaydi.

Sarlavhada kinoya va kesatiqning qo'llanilishi, ko'pincha, yuzaki ma'no bilan matnning yashirin ma'nosini o'rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradi. Sarlavhada qo'llanilgan kinoya yoki kesatiq matnning asosiy g'oyasi bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning chuqurroq tahlilini talab qiladi. Bu tahlil matnning asosiy xabari va yozuvchining pozitsiyasini tushunishga yordam beradi.

Sarlavhada bu vositalar yordamida o'quvchi dastlab ma'noni bir yo'sinda qabul qilishi mumkin, lekin matnning o'zini o'qigach, aslida bu tushuncha kinoya yoki kesatiq ekanini anglaydi. Sarlavhadagi kinoya yoki kesatiq, ko'pincha, mazmunan qarama-qarshi ma'noni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азнаурова, Э.С. Прагматика художественного слова Текст. / Э.С. Азнаурова. Ташкент: Фан, 1988. - 121 с.
2. Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря Текст. // Прагматика и проблемы интенсиональности. М.: Ин-т языкоznания АН СССР, 1988. - С. 7-44.
3. Арнольд, И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкоznания, 1982.- №4.-С. 83-91.
4. Арутюнова, Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. // Новое в зарубежной лингвистике. М.: Прогресс, 1985. - Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. - С.3-42.
5. Багдасарян В.Х. Проблема имплицитного (Логико-методологический анализ). / Отв. ред. Г.А. Геворкян. Ер: Изд-во АН Арм. ССР, 1983.- 138с.
6. Долинин, К. А. Имплицитное содержание высказывания Текст. / К. А. Долинин // Вопросы языкоznания. 1983. - № 6. - С. 37 - 47.
7. Кухаренко В.А. Типы и средства выражения импликации в английской художественной речи (на материале прозы Э.Хемингуэя) // Филологические науки. М., 1974. - №1